

# 300 nafardan ortiq talaba ishga joylashish uchun yo'llanmaga ega bo'ldi



300 nafardan ortiq talaba ishga joylashish uchun yo'llanmaga ega bo'ldi

Talabalarni bandligini ta'minlash, ularni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish borasidagi amaliy ishlar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalari qatorida Termiz davlat universitetida ham davom etmoqda.

TerDUda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-martda o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari bandligini ta'minlash orqali ularning turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi videosektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash hamda universitet talabalariga darsdan bo'sh vaqtlarida ish bilan bandligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi bo'lib o'tdi.

Surxondaryo viloyat hokimligi, Termiz davlat universiteti hamda viloyat Bandlik bosh boshqarmasi hamkorligida o'tkazilgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkasida viloyatning shahar va tumanlar darajasidagi tashkilot, muassasa, korxonalar va yirik tadbirkorlik subyektlari vakillari bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdilar.

Yarmarkada qatnashgan barcha talaba-yoshlar uchun 160 dan ortiq tashkilotlarda mavjud 2512 mingga yaqin vakant ish o'rne taklif etildi.

Mazkur yarmarkada Termiz davlat universitetining 3 ming nafardan ortiq talabasi ishtirok etib, shu yerning o'zida 300 nafardan ortiq talabalariga ishga joylashish bo'yicha ko'llanmalar berildi.







